



SHERMUHAMMAD MUNIS IJODIDA YORDAMCHI SO‘ZLARNING ROLI

To‘g‘onboyeva Nozima

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirikvakili Shermuhammad Munis ijodida qo‘llangan yordamchi so‘zlarning grammatik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada eski o‘zbek tilida keng iste’molda bo‘lgan ko‘makchilar, bog‘lovchilar va yuklamalarning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti hamda badiiy matndagi vazifalari Munis asarlari misolida yoritilgan. Shuningdek, shoir she‘riyatida uchraydigan bila, ichra, uzra, sari, yanglig‘ kabi ko‘makchilar, kim, to, valek, ne...ne kabi bog‘lovchilar hamda -mu, bas kabi yuklamalarning qo‘llanishi misollar asosida izohlangan. Tadqiqot natijasida Munis ijodi eski o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning shakli va ma‘nosini o‘rganishda muhim manba ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar. Munis, eski o‘zbek tili, yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, badiiy til, Xorazm adabiy muhiti, grammatik munosabat, tarixiy tilshunoslik.

Annotation. This article analyzes the grammatical and semantic features of auxiliary words used in the works of Shermuhammad Munis, a prominent representative of the Khorezm literary environment of the 19th century. The article examines the formation, historical development, and functions of auxiliary words, connectives, and suffixes widely used in the Old Uzbek language in the works of Munis, using the example of Munis's works. In addition, the use of auxiliary words such as bila, ichra, uzra, sari, yanglig, connectives such as kim, to, valek, ne...ne, and suffixes such as -mu, bas, found in the poet's poetry, is explained based on examples. As a result of the study, it was determined that Munis's works are an important source for studying the form and meaning of auxiliary words in the Old Uzbek language.

Keywords: Shermuhammad Munis, Old Uzbek language, auxiliary words, auxiliary, connective, loading, literary language, Khorezm literary environment, grammatical attitude, historical linguistics.

Eski o‘zbek tilida (asosan XIV - XIX asrlar) yordamchi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilidagidek ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kabi turlarga ajratilgan. Ushbu yordamchi so‘zlar mustaqil leksik ma‘noga ega bo‘lmasada, gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi grammatik va semantik munosabatlarni ifodalashda muhim vazifalarni bajargan. Biroq ularning shakli va qo‘llanilishida o‘ziga xos tarixiy xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Hozirgi kunga kelib, ko‘pgina yordamchi so‘zlar fonetik o‘zgarishga uchragan, ayrim yordamchi so‘zlar sekin-asta kelishik qo‘shimchalariga aylangan. Eski o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning yorqin namunalarini yetuk shoir, tarixnavis Shermuhammad Munis ijodida ko‘rishimiz mumkin.

Shermuhammad Munis XIX asr Xorazm adabiy muhitida buyuk ijodkor sifatida faoliyat yuritgan. U o'zining „Munis ul- ushshoq”,

„Firdav ul-qbol”, „Savodi ta'lim” asarlarida va „Saylanma” sida o'sha davr tilini mukammal tarzda aks ettirgan. Yuz xushomad bila gadolig' etib, Topa olmas yemakka non shuaro. Yuqoridagi baytda keltirilgan bila ko'makchisi sof ko'makchi hisoblanib, uning birla/birlan/bilan shakllari ham mavjud. Bu ko'makchi dastlab birla shaklida qo'llanilgan bo'lib, boshqa shakllari keyinchalik yuzaga kelgan. Shu bilan birga ushbu ko'makchi XV asr va undan keyingi davrlarda, asosan, she'riy asarlarda ila shaklida keng iste'molda bo'lgan. XIX asrga oid she'riy asarlarda esa - la shaklida ham uchratishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilgan baytda bila ko'makchisi holat ma'nosini ifodalab kelgan. Bundan tashqari bu ko'makchi birgalik, vosita, payt, sabab, maqsad ma'nolarini ifodalab kelish uchun ham xizmat qiladi. Shoir o'z ahvolig'a darmandau fazl ahli xor, Ohkim, topmas bu davron ichra bir g'amxora so'z. Ushbu baytda keltirilgan ichra ko'makchisi ,asosan, bosh kelishikdagi so'z bilan birikadi. Bu ko'makchi ich so'ziga - ra jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilishi orqali hosil qilingan bo'lib, XV asrdan boshlab she'riy asarlarda, undan oldingi davrlarda nasriy asarlarda ham qo'llanilgan. Har kim ul zolimlar ollida tazallum ko'rguzub, Yeb alardin bosh uza musht-u, yuz uzra kojlar. Munisning ushbu keltirilgan baytida uza/uzra sof ko'makchisi qo'llanilgan bo'lib, u odatda, bosh kelishikdagi so'z bilan keladi. Uzra ko'makchisi „ yuza” ma'nosidagi uz so'ziga - ra jo'nalish kelishigi affiksi qo'shilishidan hosil bo'lgan. XV asrga qadar nasriy asarlarda ham, she'riy asarlarda ham iste'molda bo'lib, undan keyingi davrlar mobaynida, asosan, she'riy asarlar tarkibida uchraydi. Bu ko'makchining uzala shakli ham mavjud bo'lib, X - XIII asrlarga oid yozma yodgorliklarda juda oz miqdorda uchraydi. Bu ko'makchining eng qadimgisi uza O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida qo'llangan bo'lib, XIX asrning birinchi yarmigacha iste'molda bo'lgan. Ushbu baytda uza/uzra ko'makchisi ish- harakatning biror narsa yuzasi bo'yicha sodir bo'lishini yoki shu narsaga qaratilishini ko'rsatib kelgan. Shavqi gul ruxsoring urar har sori yuz xor, Ne ayb ko'ngul aylasa bulbul kibi nola. Mazkur baytda eski o'zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida iste'molda bo'lgan sori (sari) ko'makchisi qo'llanilib, ish-harakatning yo'nalishini belgilab kelgan. XIV asrga qadar iste'molda bo'lgan taba, XV asrdan oldingi davrga oid manbalarda uchraydigan tabaru ko'makchilari sari ko'makchisi bilan bir guruhni tashkil etadi. Tabaru ko'makchisi taba ko'makchisiga - ru jo'nalish kelishigi affiksini qo'shish orqali hosil qilingan. Ul quyosh borur tushub soch soyaoso keynida, Zarra yanglig' muhtaribmen zor-u shaydo keynida. Mazkur go'zal baytda barcha davrlarda birdek iste'molda bo'lgan yanglig' ko'makchisi qatnashgan bo'lib, u o'xshatish ma'nosini ifodalaydi. Yanglig' morfologik tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi: yang xitoycha so'z bo'lib, shakl, obraz, usul, odat ma'nosini anglatasa, -lig' turkcha bo'lib o'zakdan anglashilgan ma'noga ega ekanligini bildiruvchi sifat yasovchi qo'shimchadir. Kebi/ kibi, bikin kabi ko'makchilarini yanglig' ko'makchisining sinonimlari qatoriga qo'yishimiz mumkin. Bu nav' buyurdi shohi abror Kim, ilm yorimi xatdur, ey yor, Bas, mundoq esa xat e'tibori Izzat darin och xat ahli sori. „ Savodi ta'lim ” asaridan olingan ushbu misralarda bosh va ergash gapning tarkibida qo'llana oladigan kim ergashtiruvchi.



bog'lovchisi qo'llangan. Kim va ki eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan ergashtiruvchi bog'lovchilar hisoblanib, kim asli turkiy so'z, ki esa eron tillaridan o'zlashgandir. Yozma yodgorliklarda fors- tojik va arab tillaridan o'zlashgan magar, koshki, illo, hatto, bale, axir, bas, ham kabi yuklamalar keng iste'molda bo'lib, turli ma'nolarda qo'llangan. Masalan, yuqoridagi misralarda bas yuklamasi modallik xususiyatiga ega bo'lib, ta'kid, tasdiq kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan. Qozarmen o'ylaki Farhod dard-u g'am tog'in, Valek tirnog'im o'ldi qozorda tesha menga. Buyuk adibning mazkur baytida valek zidlov bog'lovchisi ishtirok etgan.

Ushbu bog'lovchi qarama- qarshi mazmundagi ikki sodda gap o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish vazifasini bajargan. Yor ko'yi sari, ey baxt, yetur, To qilay jonni fidolar anda. To ergashtiruvchi bog'lovchisi XIII

- XIV asrlarda qo'llana boshlagan va yuqoridagi misralarda payt ergash gapni bosh gapga bog'layapti. Istading, ey dil, ko'zin, joning kerakmasmu sanga? Kufri zulfin sevding, imoning kerakmasmu sanga? Tajohul ul - orif badiiy san'ati asosida yaratilgan ushbu misralarda -mu? so'roq yuklamasidan unumli foydalanilgan bo'lib, u so'roq ma'nosidan tashqari ta'kid, taajjub kabi ma'nolarni ham ifodalagan. Bu yuklama, asosan, XIII - XIV asr yozma yodgorliklari uchun xarakterlidir. Ishqing havosi andoq xushk aylamish menikim, Ne tanda bor rutubat, ne ustuxon aro mux. Xorazm adabiy muhitining zabardast vakili Munis ijodidagi ushbu baytda ne..., ne..., bog'lovchisi qatnashgan bo'lib, u uyushgan bo'laklar yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar oldidan takrorlanib kelib, inkor ma'nosini ifodalaydi. Ne inkor bog'lovchisi bilan tuzilgan gaplar dastlab „ Qutadg'u bilig ” asarida uchraydi. „ Devonu lug'atit -turk” da ne o'rnida unga vazifadosh bo'lgan ab- ab yordamchisi ishlatiladi. Xulosa qilib aytganda, Shermuhammad Munis ijodida yordamchi so'zlar muhim grammatik va uslubiy vazifani bajaradi. Shoir asarlarida qo'llangan ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar o'sha davr eski o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Munis she'riyatida bila, ichra, uzra, sari, yanglig' kabi ko'makchilar, kim, to, valek, ne...ne kabi bog'lovchilar hamda - mu, bas singari yuklamalar faol qo'llanib, gap bo'laklari o'rtasidagi grammatik va semantik munosabatlarni ifodalashga xizmat qilgan. Bundan tashqari, ushbu yordamchi so'zlar badiiy matnning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, shoir tilining obrazlilik va ta'sirchanligini oshirgan. Ayrim yordamchi so'zlar hozirgi o'zbek tilida ham faol qo'llanayotgan bo'lsa, ba'zilar tarixiy shakl sifatida til taraqqiyotining muhim bosqichlarini aks ettiradi. Shu jihatdan Shermuhammad Munis asarlari eski o'zbek tilidagi yordamchi so'zlarning shakli, ma'nosi va qo'llanish xususiyatlarini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Gʻ., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikas. — Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. — 528 b.
2. Abdushukurov B. Oʻzbek tili tarixi. — Toshkent: Nodirabegim, 2021. — 332 b.
3. Рустамов Т. Соф кўмакчилар. — Тошкент: Фан, 1991. — 125 б.
4. Шермух,аммад Мунис Хоразмий. Сайланма.— Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. — 365 б.
5. Шермух,аммад Мунис. Саводи таълим. — Тошкент: Ўқитувчи, 1997. —48 б.

